

Energetika muammolari instituti

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI ENERGETIKA MUAMMOLARI INSTITUTI

Direktor



Muratov Xakim Maxmudovich

texnika fanlari doktori, professor

energetika@academy.uz

(+998 71) 283-23-08

Bog'lanish

Manzil: 100204, Toshkent sh., Muxtor-Ashrafiy 1-o'tar ko'chasi, 9-A

Direktor: Muratov Xakim Maxmudovich

Telefon: (+998) 71-283-23-08

Faks: (+998) 71-283-23-08

Sayt: www.



☒ Energetika muammolari instituti o'zining rivojlanish yo'lida ko'p yillik tarixga ega. Energetika muammolari instituti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-maydag'i 273-sonli Qaroriga asosan 2016-yil 13-iyulda tugatilgan O'zRFA Energetika va avtomatika institutining bazasida tashkil topgan va 2021-yil 4-mayga qadar faoliyat yuritgan ““O'zbekenergo” AJ Ilmiy-texnika markazi” MCHJning barcha vakolatlarini olib O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining tarkibida tashkil etilgan. O'zRFA sobiq Energetika va avtomatika instituti o'zining faoliyatini 1941-yilda tarqatib yuborilgan Suv va energetika muammolari institutining energetik ilmiy bo'linmalari asosida boshlagan. Tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari: mamlakatning barqaror energetika rivojlanishi strategiyalarini ishlab chiqarish, o'rta va uzoq muddatli istiqbollarga yoqilg'i-energetika majmuasining rivojlanish va takomillashtirish dasturini ishlab chiqish; yoqilg'i-energetika majmuasining dolzarb muammolarini o'rganish, global va mintaqaviy energetika rivojlanishining hozirgi tendensiyalarini tahlil qilish, O'zbekiston energetikasining o'rta va uzoq muddatli rivojlanishini bashorat qilish; respublika iqlim sharoitida muqobil (noan'anaviy) energiyaga asoslangan energetika uskunalari va tizimlarining yangi texnologiyalarining resurs sig'imdonligini o'rganish; iqtisodiyotning turli tarmoqlarida energiya iste'molini kamaytirish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish; energetika sohasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish, “aqli tarmoqlar” nazariyasini va energetika sohasiga joriy etish usullarini ishlab chiqish; mamlakat energetika xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlar sharoitida tabiiy va texnogen xarakterga ega yoqilg'i-energetika majmuasi obyektlarining barqaror ishlashini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish; mintaqaga qo'shni mamlakatlar o'rtasida

yoqilg'i-energetika resurslaridan birgalikda foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish; iqtisodiyotning turli tarmoqlarida an'anaviy, shuningdek, muqobil va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish bilan bog'liq fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish hamda innovatsion ishlanmalar ishlab chiqish